

## TILSHUNOSLIKDA STILISTIKANING O'ZIGA XOSLIGI VA XUSUSIYATLARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10431264>

**Choriyeva F.N**

O'zMU,

Lingvistik(nemis tili) magistranti

Ilmiy rahbar: Dr. Turakulova S.T.

### **Annotatsiya**

*Ushbu maqolada stilistika sohasiga oid nazariyalar hamda olimlar fikri, stilistikaning o'ziga xos xususiyatlari ko'rib chiqilgan. Ularga umumiy xulosalar berilgan.*

### **Аннотация**

*В данной статье рассмотрены теории и мнения ученых, относящиеся к области стилистики, специфические особенности стилистики. Им даются общие выводы.*

### **Annotation**

*This article discusses the theories and opinions of scientists related to the field of stylistics, specific features of stylistics. They are given general conclusions.*

### **Kalit so'zlar**

*Stil, stilistika, stilistik me'yor, struktural stilistika, funksional stilistika, nutq stilistikasi, til stilistikasi.*

Bugungi kunda dunyodagi har bir soha rivojlanib, takomillashib bormoqda. Har kungi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy-ma'naviy, ilmiy muloqotlarda foydalanilayotgan so'zlar, iboralarning ishlatilish doirasi, uslubiy bo'yoqdorligi, yozma va og'zaki shakllari kengaymoqda. Shuningdek, ulardan foydalanish qoidalari, tartiblari, usullari ham rang – baranglashmoqda. Bunday o'zgarishlar, rivojlanishlar tilshunoslikdagi har bir tarmoqning takomillashuviga sabab bo'lmoqda.

Stilistika tilshunoslikning bir qismi bo'lib, tilning uslubiy jihatlari, qo'llanish tartibi va so'zlar bilan ifodalanishning xususiyatlarini o'rganish bilan bog'liqdir. U bizga bir matnning uslubi, ma'nosi, qo'llanilgan til va so'zlar orqali aks etadigan tasavvur va hislarni ifodalashga yordam beradi. Stilistika, matnning uslubi va tilning xususiyatlari orqali matndagi ma'noni o'zgartirishi, tasavvur va hislarga ta'sir o'tkazishi mumkin bo'lgan usullarni o'rganadi. Bu usullar matndagi ma'noni

kuchaytirish, yumshoqlik qo'shish, tasvirlash, ta'kidlash, ironiya qilish, kabi usullarni o'z ichiga oladi. Stilistika matndagi so'zlar, ifodalar, so'z birikmalar, tushunchalar, tahririy qo'llanmalar orqali matnning uslubiy xususiyatlarini o'rganadi. Bu uslubiy xususiyatlar matndagi ta'riflar, ma'noni ifodalash usullari, matndagi tarjima va tafsilotlarni o'zgartirish, axborotlarni ifodalash usullari, matndagi qo'llaniladigan birliklar va so'zlar kabi elementlarni o'z ichiga oladi. Tilshunoslikda stilistikaning tutgan o'рни beqiyos bo'lib, tilshunos olim R.A. Bulgakov "Stilistika har bir rivojlangan tilning jonidir"- deya ta'kidlaydi. Bu fikrni davom ettirgan holda A.V. Stepanov o'zining "Stilistika asoslari" kitobida "Filologiya fanining eng yuqori cho'qqisi stilistikadir", degan edi. Stilistik me'yorlarni shakllantirish mashhur tilshunos olim G.O. Vinokur ta'kidlaganidek, nutq madaniyatining o'z oldiga qo'ygan asosiy maqsadi va uning eng yuqori pog'onasidir. Chunki stilistik me'yorlarni yaxshi bilmasdan, ularni mukammal egallamasdan turib nutq madaniyatiga erishib bo'lmaydi. Darhaqiqat, har bir so'zni tanlab, o'ylab ularning har bir ma'nosiga, ma'no qirralariga yaxshi e'tibor qilib o'rinli ishlatish shaxs ma'naviyatida katta ahamiyat kasb etadi. So'zlarni, grammatik shakllarni befarq qo'llash, vaziyatga mos tushmaydigan gaplarni beixtiyor, nazoratsiz aytib yuborish nutqni bachkanalashtiradi, fikrni xiralashtirib, nutq ta'sirchanligiga putur yetkazadi.

Stilistika fanining o'rganish obyekti haqida turli qarashlar mavjud. Akademik V.V. Vinogradov stilistik jihatdan bir biri bilan aloqador, lekin vazifalari jihatdan bir biri bilan farqlanadigan quyidagi 3ta tekshirish aspektini keltirib o'tadi:

1. Struktural stilistika ya'ni tilning funksional stillarini o'rganuvchi stilistika. Struktural stilistikaning asosiy vazifasi so'zlashuv, rasmiy, ilmiy-ommabop, publisistik, badiiy stillarining o'ziga xosligi va ifoda vositalarini o'rganishdir;

2. Turli janrlarning ma'no va ta'sir doirasining qamrovi, shuningdek, og'zaki va yozma nutq orasidagi farqni o'rganuvchi jihat. Uning vazifasi tilning barcha stillari bilan bir qatorda yozma va og'zaki shakllari, so'zlashuv va adabiy nutq ko'rinishlarini tekshiradi. Qo'shimcha tarzda u til birliklaridan qaysi biri yozma va qaysi biri og'zaki nutqda ko'proq ishlatilishi, fikr ifodalashda til vositalarining to'g'ri tanlangani yoki uslubiy xatolikka yo'l qo'yilganligini, shu vositalarning ekvivalentlarini tadqiq etadi;

3. Adabiy yo'nalishlar, badiiy asar hamda yozuvchi stilini tadqiq etadigan badiiy adabiyot stilistikasi. Uning vazifasi badiiy asarlarni yaratishda yozuvchilar stillari, ifoda vositalaridan foydalanish mahorati haqida bahs yuritishdir.

Ko'rinib turibdiki, stilistika fani akademik V.V.Vinogradov ko'rsatgan aspektlardan ilk ikkitasi asosida shakllangan. Uchinchisi adabiyotning obyektiga

aylandi. Aslida badiiy adabiyot stilistikasi uning bir ko'rinishidir. Bularning alohida alohida olinishiga sabab, bu boshqa stillardan farqlanadi. Badiiy adabiyot stili keng qamrovliligi, ya'ni barcha stillarni ham o'zida ifodalashi bilan tavsiflanadi. Demak, stilistika 2 xil ko'rinishga ega:

1. Nutq stilistikasi. Bunga, so'zlashuv, rasmiy, ilmiy, publisistik va badiiy stil kiradi.

2. Til stilistikasi ya'ni lingvistik stilistika. U quyidagi turlarga bo'linadi:

a) fonetik stilistika;

b) leksik stilistika;

c) grammatik stilistika.

Demak, shuni alohida ta'kidlash joizki, stilistika matndagi so'zlar, ifodalar, so'z birikmalar, tushunchalar, tahririy vositalar kabi tilning xususiyatlari orqali matnning uslubiy xususiyatlarini o'rganadi. Bu uslubiy xususiyatlar matndagi ta'riflar, ma'noni ifodalash usullari, matndagi tarjima va tafsilotlarni o'zgartirish, axborotlarni ifodalash usullari, matndagi qo'llaniladigan tashkilot va so'zlar kabi elementlarni o'z ichiga oladi. Stilistika tilshunoslikning muhim aspektidir, u tilshunoslikda o'zining o'rni va ahamiyatiga ega bo'lgan ilmiy sohadir. Bu so'zning ma'nolari, ifoda qilish usullari, so'z tanlash, so'z birikmalarini tartibga solish va boshqa tilning tilshunoslik aspektlarini o'z ichiga oladi. Stilistika, so'z va gapning ma'nolari, ifoda qilish usullarini o'rganib, ulardan samarali foydalanishni tatbiq etadi. Bu esa tilni qo'llashda aniq va samarali xususiyatlarni belgilashga yordam beradi. Stilistika, shuningdek, nutqni, yozuvni yoki boshqa kommunikatsiya shakllarini qanday ta'sirli, ma'noli va samarali qilish mumkinligini o'rganadi. Bundan tashqari, stilistika tilshunoslikda o'ziga xos metodlar va usullar bilan ham shug'ullanadi. Misol uchun, stilistik tahlil, stilistik tadqiqot, stilistik tarjima, stilistik tavsif, stilistik ta'rif va boshqalar stilistika sohasidagi asosiy usullardan ba'zilaridir. Bular hammasi stilistika va uning tilshunoslikdagi o'rni haqida umumiy tasavvur berish uchun muhim aspektlardir.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. E.Riesel, E. Schendels. Deutsche Stilistik. Moskau, Verlag Hochschule,1975

2. Bernhard Sowinski. Deutsche Stilistik.

3. Gennadij W. Pan. Deutsche Stilistik. Taschkent 2010.

4. Xalilova M. O'zbek tili stilistikasi asoslari. Farg'ona, Farg'ona nashriyoti

2009